

*F.f.n.,dots. Sh.Sodiqova,  
Turkiy tillar kafedrası 3-kurs talabasi Z.Xoliqova*

## **FRANSUZ TILIDAN TURK TILIGA O‘ZLASHGAN TIBBIYOTGA OID ATAMALARNING FONETIK MOSLASHUVI MASALASI**

Har bir til asrlar osha yillar davomida o‘z lug‘at boyligini boyitib boradi. Mazkur jarayonda tilda o‘zlashma so‘zlar katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda o‘zlashma so‘zlar tadqiqi turk tilida dolzarb masala hisoblanadi. Bu borada bir qator ishlar olib borilgan bo‘lsa-da, o‘zlashma so‘zlarni tasniflashda bir qancha kamchiliklar mavjud va aynan fransuz tilidan o‘zlashgan tibbiyot sohasiga oid atamalar yetarlicha o‘rganilmagan. Shu sababli biz bu tur o‘zlashma so‘zlarni to‘plab, uning xususiyatlarini o‘rganib, fonetik moslashuviga oid jihatlari tahlil qilishni maqsad qildik.

Tilning lug‘at qatlamini, uning boyish usullarini o‘rganish tadqiqotchilarni doimo qiziqtirib kelgan. Shu sababli bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan va o‘zlashma so‘zlarning xususiyatlari o‘rganilgan.

Masalan, doktor Ali Chichekning-“Türkçeye Giren Fransızca Kökenli Bazı Kelimeler Üzerine Bir Çalışma” (Turk tiliga kirgan fransuzcha so‘zlar ustida tadqiqot) nomli maqolasida turk tiliga fransuz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni uch manba orqali o‘rganib, 65 ta o‘zlashma so‘zlarni sharhlab berilgan.<sup>1</sup>

Yordamchi dotsent doktori Bedri Aydog‘an “Türkçeye Giren Yabancı Sözcükler ve Otel Adları” (Turk tiliga kirgan o‘zlashma so‘zlar va mehmonxona nomlari) nomli maqolasida turk tiliga boshqa tillardan so‘zlarning o‘zlashishini tanqid qilgan. Ularni Turkiyada joylashgan mehmonxona nomlari orqali izohlagan.<sup>2</sup>

Professor doktor Jengiz Tosun-“Dil Zenginliği, Yozlaşma ve Türkçe” (Tilning boyishi, o‘zlashma va turkcha) nomli maqolasida o‘zlashma so‘zlar va tilning boyishi haqida fikr yuritgan. Ingliz tilidan turk tiliga kirib kelgan o‘zlashma so‘zlar haqida ma’lumot bergan.<sup>3</sup>

Esin Turgutning “Türk dilindeki fransızca kelimeler” (Edirne 2009, 79 bet) nomli tadqiqotida turk tiliga fransuz tilidan so‘zlarning kirib kelish tarixi va sabablarini ko‘rsatgan. Tadqiqotni amalga oshirish uchun 2 roman va 10 hikoyadan foydalangan.<sup>4</sup>

<sup>1</sup> Dr.Ali Çiçek-"Türkçeye giren fransızca kökenli bazı kelimeler üzerinde bir inceleme" Erzurum 2004-yil (10 bet)

<sup>2</sup> Yordamchi dotsent doktori Bedri Aydoğan-"Türkçeye Giren Yabancı Sözcükler ve Otel Adları" Çukurova universiteti, Fan va adabiyot fakulteti, Turk tili va adabiyoti bo‘limi kafedrası. (19 bet)

<sup>3</sup> Prof.Dr Cengiz Tosun-“Dil Zenginliği, Yozlaşma ve Türkçe” Istanbul, 2005-y.,19b.

<sup>4</sup> Esin Turgut-"Türk dilindeki fransızca kelimeler" Edirne 2009-y.,78 b.

Fatih Erbay-“Türkçe Sözlük`ün ilk ve son baskısındaki Batı kökenli kelimelere dair” (Turkcha lugʻatning ilk va soʻnggi nashrlaridagi Gʻarb soʻzlariga oid) maqolasida turkcha lugʻatning ilk va oxirgi nashrlari oʻrtasidagi farq, oʻzlashma soʻzlar soni, ularning kirib kelish yili va sabablari haqida batafsil maʼlumot berilgan.<sup>5</sup>

Filiz Shensoy “Medya ve iletişim yolu ile türkçeye girmiş yabancı sözcükler” (Matbuot va kommunikatsiya orqali turkchaga kirib kelgan oʻzlashma soʻzlar) (Edirne, 2006) maqolasida media va aloqa sohasiga oid oʻzlashgan soʻzlarning oʻzlashish usullari va qoʻllanilishini batafsil yoritib bergan.<sup>6</sup>

Prof.Dr. Hamza Zulfikar “Yabancı Kelimelerin Dilde Yayılışı” (Oʻzlashma soʻzlarning yoyilishi) turk tilidagi oʻzlashma soʻzlar, ularning oʻzlashish sabablari yoritib berilgan.<sup>7</sup>

Huseyin Ersoy “Türkçedeki Yabancı Sözcüklerin Kullanım Alanı Bilgileri Ve Düşündürdükleri” nomli maqolasida oʻzlashma soʻzlarning kirib kelish tarixi, sabablari va qoʻllanilish sohalari haqida maʼlumot bergan.<sup>8</sup>

Selman Chikmaz “Türkçe anatomi terimlerinin etimolojik ve semantik açıdan incelenmesi” (Turkcha anatomiya terminlarining etimologik ve semantik jihatdan tadqiq etilishi).<sup>9</sup>

Har bir tilning ravnaqida uning boyish manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Turk tilidagi oʻzlashma soʻzlarning soni va qoʻllanilish sohasi, tarixda turklarning qaysi sohalarda rivojlangani yoki ortda qolgani, qaysi davrda qaysi davlatlar bilan doʻstona munosabatlarda boʻlganligini koʻrsatadi.

“Tadqiqotlar natijasiga koʻra turk tilidagi oʻzlashma soʻzlarning koʻp qismi ilmiy sohaga oid va bu soʻzlar faqat bir tildan emas, balki bir qancha tillardan oʻzlashgan va ular tabiiy fanlar va tabiat sohasiga oiddir. Ijtimoiy sohaga oid oʻzlashma soʻzlar soni esa juda kam. Ijtimoiy sohaga oid soʻzlarning arab va fors tillaridan olinishi Sharqning ijtimoiy sohada kuchli ekanligini, tabiiy fanlar va tabiatga oid soʻzlarning fransuz tilidan olinishi esa Yevropaning bu sohalarda ilgʻor boʻlganidan darak beradi. Bu holat esa turklarning tarixda tabiiy fanlar va tabiat sohasida biroz ortda boʻlganini va bu sohada Yevropaga suyanganini koʻrsatmoqda. Ijtimoiy sohada oʻzlashma soʻzlar sonining kamligi esa ularning bu sohada yetarlicha rivojlanganini koʻrsatadi.”<sup>10</sup>

---

<sup>5</sup> Fatih Erbay-“Türkçe Sözlük`ün ilk ve son baskısındaki Batı kökenli kelimelere dair” Istanbul, Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti boʻlimi. 7 bet.

<sup>6</sup> Filiz Şensoy-“Medya ve iletişim yolu ile türkçeye girmiş yabancı sözcükler” Edirne shahri, Trakya universiteti, 2006-y.91 bet

<sup>7</sup> Prof.Dr.Hamza Zulfikar-“Yabancı Kelimelerin Dilde Yayılışı”8 bet.

<sup>8</sup> Hüseyin Ersoy-“Türkçedeki Yabancı Sözcüklerin Kullanım Alanı Bilgileri” Istanbul 2014-yil.15 bet.

<sup>9</sup> Selman Çikmaz-“Türkçe anatomi terimlerinin etimolojik ve semantik açıdan incelenmesi” (Turkcha anatomiya terminlarining etimologik ve semantik jihatdan tadqiq etilishi) Edirne 2006-yil (102 bet)

<sup>10</sup> Hüseyin Ersoy-“Türkçedeki Yabancı Sözcüklerin Kullanım Alanı Bilgileri” Istanbul, 2014-yil, 7-bet

Turkiya tarixiga nazar solsak, turklar va fransuzlar oʻrtasidagi aloqalar ilk bora Qonuniy Sulton Sulaymon davriga toʻgʻri keladi. Aynan shu davrdan boshlab zamonaviylashish va Yevropa tomon intilish boshlanadi. Yevropalashish davri boʻlmish Tanzimot davridan boshlab fransuz maktablari ochildi, fransuz tili va adabiyotiga boʻlgan qiziqish yanada ortdi. Yevropalashish bilan bir qatorda tilni soddalashtirish ishlari olib boriladi. Bunda arab va fors tillaridan oʻzlashgan soʻzlarni oʻrniga fransuz tilidan soʻzlar kirib kela boshladi.<sup>11</sup>Tadqiqotimiz davomida fransuz tilidan turk tiliga oʻzlashgan 6250 ta soʻz aniqladik.<sup>12</sup>

---

<sup>11</sup> Dr.Ali Çiçek-"Türkçeye giren fransızca kökenli bazı kelimeler üzerinde bir inceleme"(Turk tiliga kirgan fransuzcha soʻzlar ustida tadqiqot) Erzurum 2004-yil 2-bet

<sup>12</sup> Ali Püsküllüoğlu-"Türkçedeki Yabancı Sözcükler Sözlüğü" Anqara, 2017-yil aprel

- |                        |                       |
|------------------------|-----------------------|
| 1. Shifokorlik- 561 ta | 14. Adabiyot- 51 ta   |
| 2. Kimyo- 372 ta       | 15. Dengizchilik-4 ta |
| 3. Fizika- 144 ta      | 16. Me`morchilik-6 ta |
| 4. Anatomiya- 55 ta    | 17. Harbiy-29 ta      |
| 5. Musiqa- 102 ta      | 18. Ta`lim-25 ta      |
| 6. Falsafa- 164 ta     | 19. Ekologiya-32 ta   |
| 7. Psixologiya- 41     | 20. Tarix-14 ta       |
| 8. Kino va teatr-73 ta | 21. Botanika-37 ta    |
| 9. Filologiya- 43 ta   | 22. Geografiya-22 ta  |
| 10. Astronomiya- 23    | 23. Tijorat-25 ta     |
| 11. Sport- 52 ta       | 24. Zoologiya-11 ta   |
| 12. Matematika- 67 ta  | 25. Huquq-8 ta        |
| 13. Ta`lim- 25 ta      |                       |

Yuqorida keltirilgan natijalarga koʻra turk tiliga fransuz tilidan asosan tibbiyotga va madaniyatga oid soʻzlar oʻzlashgan. Bu natijalar Huseyin Ersoyning fikrlarining toʻgʻriligini isbotlamoqda. Lekin oʻzlashma soʻzlar lugʻatida bir qancha kamchilik ham kuzatildi. Aniqlangan 6250 ta fransuz tilidan turk tiliga oʻzlashgan soʻzlarning 4498 tasi ot va sifat turkumlariga ajratilgan boʻlib, aynan qaysi sohalarga tegishli ekanligi koʻrsatilmagan.

Fransuz tilidan turk tiliga oʻzlashgan tibbiyotga oid atamalarda bir qator fonetik oʻzgarishlar kechgan. Maʼlumki, turk tilida soʻzlarning yozilishi va talaffuzi bir xil. Boshqa tillardan soʻzlarni oʻzlashtirayotganda ham bu qoidaga amal qilingan. Shu sababli fransuz tilidagi soʻzlar va turk tiliga oʻzlashgan soʻzlarda yozilishi va talaffuzi jihatidan farq mavjud. Bu farqlarni quyidagi misollar orqali koʻrishimiz mumkin:<sup>13</sup>

***Talaffuzi jihatidan oʻxshash va farqli tomonlari***

*Talaffuzi bir xil boʻlgan soʻzlar:*

	Turkcha	Fransuzcha yozilishi	Fransuzcha talaffuzi
1	Şok	Choc	Shok
2	Oksijen	Oxygene	Oksijen
3	Stetoskop	Stethoscope	Stetoskop
4	Poliklinik	Polyclinique	Poliklinik
5	Kritik	Critique	Kritik
6	Psikolog	Psychologue	Psikolog
7	Antibiyotik	Antibiotique	Antibiyotik

*Turkcha talaffuzda “g” tovushining “r” tarzida talaffuz qilinishi:*

	Turkcha	Fransuzcha yozilishi	Fransuzcha talaffuzi
1	Bisturi	Bistouri	Bistug`i
2	Doktor	Docteur	Doktog`

<sup>13</sup> Zeynep Sahra- “Elmalı Turta” Istanbul 2017-yil may. Renkitap yayinevi. 496 bet.

3	Adrenalin	Adrenaline	Adg`enalin
4	Kardiyolog	Cardiolog	Kag`diyolog
5	Laboratuvar	Laboratoire	Labog`atuvag`
6	Alerjik	Allergique	Alleg`jik
7	Steril	Sterile	Steg`il

*Fransuzchada a talaffuzining turkchada e tarzida talaffuz qilinishi:*

	Turkcha	Fransuzcha yozilishi	Fransuzcha talaffuzi
1.	Enfeksiyon	Infection	Anfeksiyon
2.	Enjeksiyon	Injektion	Anjeksiyon

*G harfining j shaklida talaffuz qilinishi*

	Turkcha	Fransuzcha yozilishi	Fransuzcha talaffuzi
1.	Genetik	Genetique	Jenetik

**Yozilishi jihatidan o`xshash va farqli tomonlari:**

*Yozilishi bir xil bo`lgan so`zlar*

	Turkcha yozilishi	Fransuzcha yozilishi
1.	Tampon	Tampon
2.	Kanser	Kanser
3.	Serum	Serum

**Tovush tushishi:**

	Turkcha	Fransuzcha	O`zgarish
1	Bisturi	Bistouri	o tovushi tushgan
2	Genetik	Genetique	U,e tovushlari tushgan
3	Oksijen	Oxygene	E tovushi tushgan
4	Adrenalin	Adrenaline	E tovushi tushgan
5	Kardiyolog	Cardiologues	U,e,s tovushlari tushgan
6	Stetoskop	Stethoscope	E tovusgi tushgan
7	Poliklinik	Polyclinique	U,e tosvushlari tushgan
8	Kritik	Critique	U,e tovushlari tushgan
9	Alerjik	Allergique	U,e tovushlari tushgan
10	Psikolog	Psychologue	U,e tovushlari tushgan
11	Steril	Sterile	E tovushi tushgan
12	Antibiyotik	Antibiotique	U,e tovushlari tushgan

**Tovush ortishi**

	Turkcha	Fransuzcha	O`zgarish
1	Enjeksiyon	Injektion	Y tovushi ortgan
2	Kardiyolog	Cardiolog	Y tovushi ortgan
3	Enfeksiyon	Infection	Y tovushi ortgan

**Tovush o`zgarishi**

	Turkcha	Fransuzcha	Oʻzgarish
1	Genetik	Genetique	Q tovushi k tovushiga oʻzgardi
2	Şok	Choc	Sh tovushi ch tovushiga oʻzgardi
3	Doktor	Docteur	Eu tovushi o tovushiga oʻzgardi
4	Oksijen	Oxygene	y-i g-j
5	Enjeksiyon	Injektion	i-e
6	Stetoskop	Stethoscope	Th-t
7	Laboratuvar	Laboratoire	Oi-uv
8	Poliklinik	Polyclinique	y-i q-k
9	Kritik	Critique	q-k
10	Alerjik	Allergique	g-j q-k
11	Psikolog	Psychologue	y-i ch-k
12	Antibiyotik	Antibiotique	q-k
13	Enfeksiyon	Infection	i-e t-s

Har bir tilning taraqqiyotida va oʻrganilishida oʻsha til ustida bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega. Xuddi shu kabi turk tili rivojida ham ilmiy izlanishlar talaygina. Bulardan biri fransuz tilidan oʻzlashgan soʻzlar borasida bir qator tadqiqotlar oʻtkazilgan. Va biz ham uning oʻrganilmagan qismi, yaʼni tibbiyot sohasiga oid oʻzlashma soʻzlarda kechgan fonetik oʻzgarishlarni kuzatdik.

Tadqiqotimiz davomida Ali Puskulluogʻluning “Türkçedeki Yabancı Sözcükler Sözlüğü” lugʻatidan 6250 ta fransuz tilidan oʻzlashgan soʻzlarni aniqladik. Bular ichida 561 tasi tibbiyot sohasiga oid. Tadqiqotimizni yanada soddalashtirish hamda xalq tilida eng koʻp qoʻllaniluvchi bu turdagi atamalarni terib olish maqsadida Zeynep Sahraning “Elmali Turta” romaniga murojaat qildik va 20 ta tibbiyot sohasiga oid atamalarni toʻpladik.

Bu ishimizda atamalarni orfografik va orfoepik tarzida tahlil qilib, quyidagi fonetik oʻzgarishlarga guvohi boʻldik:

✓ **Orfografik jihatidan tahlil** davomida 17 ta tibbiyotga oid oʻzlashma soʻzlarni tahlil qildik:

- Bulardan 7 ta soʻzlarning talaffuzi bir xil.
- Turkcha talaffuzda “g” tovushining “r” tarzida talaffuz qilingan soʻzlar soni 7 ta
- Fransuzchada “a” tovushining turkchada “e” shaklida talaffuz qilingan soʻzlar soni 2 ta
- Turkcha “g” tovushining fransuzcha talaffuzda “j” shaklida talaffuz qilingan soʻzlar soni 1 ta

✓ Orfoepik jihatidan tahlil davomida 31 ta fransuz tilidan turk tiliga oʻzlashgan tibbiyot sohasiga oid soʻzlarni tahlil qildik:

- Yozilishi jihatidan bir xil boʻlgan soʻzlar soni 3ta
- Tovush tushishi hodisasi yuz bergan soʻzlar soni 12ta
- Tovush ortishi hodisasi yuz bergan soʻzlar soni 3ta
- Tovush oʻzgarishi hodisasi yuz bergan soʻzlar soni 13 ta

Yuqorida keltirilgan tahlil natijasiga koʻra fransuz tilidan turk tiliga oʻzlashgan tibbiyot sohasiga oid soʻzlarda kechgan fonetik oʻzgarishlarning katta qismi talaffuz jihatidan turkchadagi “r” tovushining “g” shaklida talaffuz qilinishi va yozilishi jihatidan tovush oʻzgarishi hodisasining sodir boʻlishi kuzatilgan.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Hüseyin Ersoy-“Türkçedeki Yabancı Sözcüklerin Kullanım Alanı Bilgileri” (turk tilidagi oʻzlashgan soʻzlarning qoʻllanilish sohalari) Istanbul 2014-yil 15 bet

2. Selman Çıkmaz-“Türkçe anatomi terimlerinin etimolojik ve semantik açıdan incelenmesi” (Turkcha anatomiya terminlarining etimologik ve semantik jihatdan tadqiq etilishi) Edirne 2006-yil .102 bet.

3. Prof.Dr Cengiz Tosun-“Dil Zenginliği, Yozlaşma ve Türkçe” (Tilning boyishi, oʻzlashma va turkcha) 2-oktabr 2005-yil.19 bet.

4. Dr.Ali Çiçek-"Türkçeye giren fransızca kökenli bazı kelimeler üzerinde bir inceleme"(Turk tiliga kirgan fransuzcha soʻzlar ustida tadqiqot) Erzurum 2004-yil.10 bet.

5. Filiz Şensoy-“Medya ve iletişim yolu ile tüekçeye girmiş yabancı sözcükler” (media va aloqa vositasida turk tiliga kirib kelgan oʻzlashma soʻzlar) Edirne shahri, Trakya universiteti 2006-yil iyul. 91 bet.

6. Fatih Erbay-“Türkçe Sözlük`ün ilk ve son baskısındaki Batı kökenli kelimelere dair” (Turkcha lugʻatning ilk va soʻnggi nashrlaridagi Gʻarb soʻzlariga oid) Adabiyot fakulteti Turk tili va adabiyoti boʻlimi. 7 bet.

7. Hakan Ertal-“Fransızca`nın Türkçe Üzerindeki Etkileri” (Fransuz tilining turk tiliga taʼsiri) Istanbul, 2017-yil 16-aprel .11bet.

8. Yordamchi dotsent doktori Bedri Aydoğan-"Türkçeye Giren Yabancı Sözcükler ve Otel Adları" (Turk tiliga kirgan oʻzlashma soʻzlar va mehmonxona nomlari) Çukurova universiteti, Fan va adabiyot fakulteti, Turk tili va adabiyoti boʻlimi kafedrası. 19 bet.

9. Prof.Dr.Hamza Zülfikar-“Yabancı Kelimelerin Dilde Yayılışı” (Oʻzlashma soʻzlarning tilde yoyilishi) 8 bet.

10. Esin Turgut-"Türk dilindeki fransızce kelimeler"(Turk tilidagi fransuzcha soʻzlar) Edirne 2009-yil .78 bet.

#### **Lugʻatlar**

• Ali Püsküllüoğlu-“Türkçedeki Yabancı Sözcükler Sözlüğü”(Turk tilidagi oʻzlashma soʻzlar lugʻati) Anqara, 2017-yil aprel

- Gökdal Okay-“Türkçe`deki Yabancı Kökenli Kelimeler sözlüğü” (Turk tilidagi o`zlashma so`zlar lug`ati) Anqara, 2001-yil sentabr
- Prof.Dr.Ali Gökalp-“Türkçe Tıp dili kılavuzu”(Turkcha tibbiyot ko`rsatgichlari) 2006-yil mart Izmit, Kovaeli Universiteti. 108 bet.